



MAHALLIY ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH VA IMPORTNI OPTIMALLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Raxmonqulov Jaloliddin Husniddin o'g'li,
Bojxona qo'mitasi Farg'ona viloyat boshqarmasi xodimi
jaloliddin1698@gmail.com

Namozov Dilshodbek G'anijonovich
Bojxona qo'mitasi TIF Ilmiy markazi xodimi
dilshodbeknamozov@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada importi yuqori bo'lgan tovarlar monitoringi, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va importni optimallashtirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar tahlil qilingan. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, ilmiy-amaliy yechimlar va innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi bo'yicha bildirilgan takliflar bayon etiladi. Mamlakat sanoatini diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: importni optimallashtirish, mahalliy kontent, UZBEK IMPORT FAIR 2025, panel sessiya, bojxona hududida qayta ishlash, mahalliyashtirish, sanoat yarmarkalari, eksport salohiyati, innovatsion takliflar, ilmiy-amaliy muhokama, mahalliy ishlab chiqarish, import o'rnini bosish

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ МЕСТНОГО ПРОИЗВОДСТВА И ОПТИМИЗАЦИИ ИМПОРТА

Рахмонкулов Джалолиддин Хусниддин угли
сотрудник Ферганского областного
управления Таможенного комитета
jaloliddin1698@gmail.com



Намозов Дилшодбек Ганижонович

Сотрудник Научного центра ВЭД при Таможенном комитете

dilshodbeknamozov@gmail.com

Аннотация

В статье анализируются результаты международной выставки “UZBEK IMPORT FAIR 2025”, направленной на совершенствование мониторинга товаров с высокой долей импорта, развитие локального производства и оптимизацию импортных процессов. Рассматриваются стратегические направления импортозамещения, эффективное использование производственных мощностей, научно-практические решения и внедрение инновационных технологий. Отмечено, что итоги выставки способствуют диверсификации промышленности, увеличению доли конкурентоспособной отечественной продукции и укреплению экономической безопасности страны.

Ключевые слова: Оптимизация импорта, локальное содержание, UZBEK IMPORT FAIR 2025, панельная сессия, переработка на таможенной территории, локализация, промышленные ярмарки, экспортный потенциал, инновационные предложения, научно-практическая дискуссия, местное производство, импортозамещение

Statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar-oktyabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 66,5 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-oktyabriga nisbatan 11 752,3 mln AQSH dollariga yoki 21,5 % ga ko'paydi. TSAda eksport hajmi 29 005,9 mln AQSH dollariga (2024-yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 27,8 %ga o'sdi) va import hajmi 37 533,4 mln AQSH dollariga (16,9 % o'sish) yetdi.¹

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri importni maqbullashtirish, mahalliy ishlab chiqarish ulushini ko'paytirish va sanoatni diversifikatsiya qilish hisoblanadi. Ўзбекистон Республикаси пойтахти

¹ <https://www.uzdaily.uz/uz/o%CA%BBzbekistonning-tashqi-savdo-aylanmasi-665-milliard-dollariga-yetdi/>



Тошкент шаҳрида “**UZBEK IMPORT FAIR 2025**” I xalqaro ko‘rgazmasi ushbu jarayonni jadallashtirishga qaratilgan muhim platformaga aylandi.

Ko‘rgazma doirasida o‘tkazilgan panel sessiyalarida importni optimallashtirishning strategik yo‘nalishlari, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mavjud salohiyatidan foydalanish, o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish jarayonidagi muammolar va ularning ilmiy-amaliy yechimlari keng muhokama qilindi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2025-yilning yanvar–iyul oylarida O‘zbekistonda ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan, ammo import qilinayotgan tovarlar hajmi **1,5 mlrd AQSh dollarini** tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichning o‘shishiga bir qator omillar — mahalliy ishlab chiqaruvchilarning import tovarlariga doir ma’lumotlardan yetarli xabardor emasligi, sanoat yarmarkalarida talab yuqori bo‘lgan import mahsulotlar haqida to‘liq axborot berilmasligi kabi holatlar sabab bo‘lmoqda.

Natijada, ichki bozor ehtiyojining muhim qismi mahalliy korxonalar tomonidan qoplanishi mumkin bo‘lgan bo‘lsa-da, ular hali ham chetdan xarid qilinmoqda. Bu esa sanoatni mahalliyashtirish jarayonining sekinlashishiga olib kelmoqda.

Mahalliy va xorijiy ekspertlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari, asosiy importyorlar va ishlab chiqaruvchilar ishtiroki quyidagi imkoniyatlarni yaratdi:

hududlarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, resurslar va texnologik imkoniyatlarning chuqur o‘rganilishi;

import o‘rnini bosuvchi yangi mahsulot turlarini joriy etish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilishi;

davlat organlari va xo‘jalik subyektlari o‘rtasida axborot almashinuvi va hamkorlikning kuchayishi;

xalqaro ekspertlar tomonidan sifat, standartlashtirish va eksportni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilishi.

Ushbu jarayon ishlab chiqarishning innovatsion rivojini jadallashtirish, sifat va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatmoqda.

Tadbirda taqdim etilgan ilmiy ishlanmalar va innovatsion yechimlar importning yuqori ulushini tashkil etuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy sharoitda yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Takliflar



ichida eng dolzarblaridan biri — meva va sabzavotlarni saqlash jarayonida ozon texnologiyasidan foydalanishdir. Ushbu texnologiya mahsulotlarni tabiiy holatda uzoq muddat saqlash, mikroorganizmlarni zararsizlantirish hamda an'anaviy sovitish va konservantlardan foydalanish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada import saqlash uskunalariga bo'lgan ehtiyoj pasayib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash jarayonlarining mahalliyashtirilishiga erishiladi.

Shokolad pastasi ishlab chiqarishda xurmo kukunidan foydalanish bo'yicha taklif ham muhim iqtisodiy afzalliklarga ega. Kakao mahsulotlari hozirda to'liq importga bog'liq bo'lgani sababli, xurmo kukuni bilan qisman almashtirish mahsulot tannarxini sezilarli darajada kamaytiradi, shakar iste'molini qisqartiradi va biologik qiymati yuqori bo'lgan funksional oziq-ovqat mahsulotlarini yaratish imkonini beradi. Bu yondashuv shokolad sanoatida mahalliy xomashyo ulushini oshiradi va import kakao mahsulotlariga bo'lgan talabni pasaytiradi.²

Parhezbop, kam yog'li mayonez ishlab chiqarishda kunjut kukuni kabi funksional qo'shimchalardan foydalanish sog'lom ovqatlanish talablariga mos bo'lgan yangi mahsulot turlarini yaratishga xizmat qiladi. Kunjut kukuni nafaqat mayonez tarkibidagi yog' miqdorini kamaytiradi, balki uning ozuqaviy qiymatini oshiradi. Bu esa import yog' asosidagi tayyor mayonez mahsulotlarining o'rnini bosuvchi innovatsion, mahalliy va parhezbop mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Mahalliy paxtadan antivarikoz kompression paypoqlar ishlab chiqarish taklifi tibbiy mahsulotlar bozorida import o'rnini bosuvchi muhim yo'nalishlardan biridir. Hozirgi vaqtda bunday tibbiy buyumlar asosan chet davlatlardan olib kelinadi. Choksiz texnologiya asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilsa, nafaqat aholining ushbu mahsulotga bo'lgan ehtiyoji o'z vaqtida qondiriladi, balki to'qimachilik sanoatining yangi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega segmenti shakllanadi va eksportbop mahsulotlar turlari kengayadi.

Marmar ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan katta hajmdagi chiqindilardan ekologik toza qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha taklif ham amaliy

² https://www.mdpi.com/2227-9717/13/11/3390?utm_source



jihatdan nihoyatda dolzarbdir. Ushbu chiqindilarni qayta ishlash orqali sement, qurilish bloklari va boshqa materiallarni mahalliyashtirish imkoniyati yuzaga keladi, bu esa import sement va qurilish materiallari sarfini qisqartiradi. Shuningdek, mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy etish uchun qo‘shimcha imkoniyat paydo bo‘ladi.

Marmar chiqindilaridan foydalanib qoplama plitalar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha taklif esa qurilish va pardoqlash sanoatida import o‘rnini samarali bosish imkonini beradi. Qoplama plitalar ichki bozorda talab yuqori bo‘lgan mahsulot turiga kiradi. Mazkur mahsulotni mahalliyashtirish orqali tannarx pasayadi, dizayn va sifat bo‘yicha innovatsion yondashuvlar joriy etiladi va eksport salohiyati ortadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar joriy etilishi esa yuqoridagi barcha yo‘nalishlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun muhim shart hisoblanadi. Imtiyoz va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, yangi texnologiyalar joriy etilishini tezlashtiradi, raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar paydo bo‘lishiga xizmat qiladi hamda importni maqbullashtirish jarayonini jadallashtiradi.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi ichki bozorni sifatli va barqaror ta‘minlash, import sarfini keskin kamaytirish, mahalliy ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish va eksportbop mahsulotlar turlarini kengaytirish uchun muhim zamin yaratadi. Mazkur yondashuvlar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va sanoatni innovatsion rivojlantirishning ustuvor omillari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

“UZBEK IMPORT FAIR 2025” xalqaro ko‘rgazmasi importi yuqori bo‘lgan mahsulotlar monitoringini takomillashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun aniq maqsadli yo‘nalishlar belgilash va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbus bo‘ldi.

Panel sessiya natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy asoslangan yondashuvlar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash choralari kuchaytirish ichki ishlab chiqarishning



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd December, 2025

raqobatbardoshligini oshirib, mamlakatda importni optimallashtirish va mahalliy kontentni kengaytirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bojxona qo‘mitasi statistik ma’lumotlari
2. Bojxona qo‘mitasining rasmiy sayti – customs.uz
3. www.Stat.uz/ ma’lumotlari
4. <https://www.uzdaily.uz/> sayti ma’lumotlari
5. <https://www.mdpi.com/> sayti ma’lumotlari